# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi o‘rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O‘zR Tabiat resurslari vaziri o‘rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Tabiat resurslari qo‘mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farxod,** O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
**Eshov Mansur Po‘latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo‘yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori
**Karimov Norboy G‘aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo‘yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To‘lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA


Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning oʻrni ........ 7
**Dehqonov Burxon Rustamovich,** tayanch doktorant

Qishloq xoʻjaligida sugʻorish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yoʻllari ........ 11
**Mirjamilova Hulkar Nurali qizi,** assistent

Yangi Oʻzbekiston sharoitida oʻsimliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish ........ 15
**Alimov Murodkosim Achilovich,** mustaqil izlanuvchi

"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili ........ 20
**Umarov Faxriddin Umar oʻgʻli,** katta oʻqituvchi

Yoqilgʻi-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini taʼminlashda investitsion faoliyatning ahamiyati ........ 26
**Ergashev Muhibbek Aslam oʻgʻli,** mustaqil izlanuvchi

Togʻli hududlarda turizm biznesining rivojlanishi ........ 31
**Abduvakil Alimov Komil oʻgʻli,** tayanch doktorant

Taʼlim turizmining nazariy asoslari va Oʻzbekistondagi tendensiyalari ........ 38
**Maxmudova Nodira Oʻktamovna,** tayanch doktorant

Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari ........ 43
**Poʻlatov Maʼmurjon Murodjon oʻgʻli,** tayanch doktorant

Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari ........ 46
**Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich,** dotsent, i. f. n.

Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi ........ 51
**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi,** dotsent, PhD

Turizmni rivojlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari ........ 57
**Yuldasheva Dilnoza Ulugʻbekovna,** mustaqil tadqiqotchi

Davlat tomonidan qishloq xoʻjaligini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ........ 62
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD; **Jabborov Jahongir Abduvohid oʻgʻli,** magistrant

Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан ........ 66
**Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич**

Oʻzbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi ........ 73
**Usmonov Botir,** magistr

Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish ........ 78
**Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi,** tayanch doktorant

Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy koʻrsatkichlari tahlili ........ 82
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich,** PhD

Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds ........ 87
**Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev,** the applicant

Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies ........ 92
**Shakhzod Saydullaev,** PhD.

Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablagʻlaridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi ........ 101
**Raximjonov Kamronbek Ilxomjon oʻgʻli,** mustaqil tadqiqotchi

Oʻzbekistonda toʻlov tizimining raqamli transformatsiyasining oʻziga xos xususiyatlari ........ 105
**Otamurodov Shavkat Nusratillayevich,** i. f. d. (DSc); **Eshqulova Nasiba Normoʻminovna,** oʻqituvchi

Tijorat banki xizmatlarida taʼlim kreditining oʻrni va uni takomillashtirish masalalari ........ 110
**Eldor Uskanov,** mustaqil tadqiqotchi

Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish ........ 114
**Maxmudov Nosir Maxmudovich,** professor; **Elmurodov Faxriddin Farxodovich,** magistratura tinglovchisi

Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari ........ 120
**Ergashev Otamurod Toshtemirovich,** PhD

Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar ........ 125
**Ermatov Musojalil Komilovich,** kafedrasi dotsenti v. b.; **Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich,** katta o'qituvchi

Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach ........ 132
**Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich**

Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization ........ 138
**Akobirova Nodira Najmiddin qizi,** asisstent

Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities ........ 141
**Alimova Guzal Alisherovna,** PhD in economics, docent

Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari ........ 146
**Jo'rayeva Sevara Zakirovna,** mustaqil izlanuvchi (PhD)

Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ........ 152
**Kamilova Iroda Xusnitdinovna,** PhD

Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability ........ 156
**Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna,** Professor

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari ........ 163
**Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri ........ 170
**Nabiyev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li,** tayanch doktorant

The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept ........ 175
**Otakulov Makhamadjon,** PhD

Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari ........ 181
**Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi**

Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida ........ 185
**Sadikova Ra'no Abdullayevna,** i. f. n., dots.

Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish ........ 188
**Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni ........ 191
**Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari ........ 196
**Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li,** dekan o'rinbosari

Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari ........ 203
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich,** dotsent; **Adilbekov Allayar Anvarbekovich,** magistrant

Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni ........ 206
**Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li,** mustaqil izlanuvchisi

Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях ........ 212
**Алиева Надирахон Абдумаликовна,** PhD. доц.; **Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи,** ст. 3-курса

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish ........ 217
**Z. G. Allaberganov,** kafedra dotsenti

Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish ........ 222
**Asatullayev Xurshid Sunatullayevich,** i. f. n., professor

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari ........ 228
**Axmedova Yulduz Sunatullayevna,** kafedra o'qituvchisi

Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari ........ 232
**Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna,** kafedra dotsenti

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda biznes jarayonlarini boshqarish . 236
**Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich,** mustaqil izlanuvchi

Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko‘rsatkichlari ... 242
**Berdiyev Akram O‘ktamovich,** mustaqil izlanuvchi

Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi ... 253
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari ... 258
**Botirov Erkinjon Xayitovich,** kafedra dotsenti

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish ... 263
**G‘aybullayev Odil Baxtiyarovich,** kafedra dotsenti v. b.

Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish ... 269
**Jubanova Bayramgul Aymuratovna,** PhD

Soliq ma’muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo‘llari ... 272
**Ibragimov Boburshoh Bohodir o‘g‘li,** i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)

Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish ... 278
**Islomov Alisher Baxtiyor o‘g‘li,** mustaqil izlanuvchi

O‘zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari ... 284
**Qurbonova Shaxrinoz,** tayanch doktorant

Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ... 288
**Mamanazarova Nasiba Jo‘rayevna,** kafedra doktoranti

Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari ... 292
**Mamirjon Jalollidinov,** mustaqil izlanuvchi

Финансирование акционерных общества через рынок капитала ... 297
**Муминов Шохжахон Суюнович,** ассистент кафедра

Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана ... 302
**Муятдинов Махмуд Жалелович,** независимый исследователь

Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны ... 307
**Назарова Гузал Баходировна**

Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari ... 312
**Nozima Abdullayeva,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili ... 316
**Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich,** kafedra dotsenti v. b.

Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках ... 326
**Тажимуратов Умид Рузматович, Бахриев Иброхим Исометдинович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Жуманиёзов Эркин Худойберганович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Тажимуратов Рузмат Отажанович,** кандидат медицинских наук, **Тажимуратов Абдусами Умид угли,** ученик 10 класса

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili ... 333
**Temirov Abdulaziz Alimjanovich,** kafedra dotsenti, i. f. n.

Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан ... 339
**Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович,** DSc; **Одилова Дилноза Барнаевна,** PhD

Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ... 345
**Tosheva Ziroat Aliqul qizi**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari ........ 349
**To'rayeva Nafisa Odilovna,** mustaqil izlanuvchi

О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития ........ 355
**Турсун Мухитович Ахмедов,** и. ф. д., проф.; **Гавхар Рустамовна Хидирова,** докторант, и. ф. ф. д., доц.

Влияние корпоративного управления в зеленой экономике ........ 359
**Уринов Бобур Насиллоевич,** заведующий кафедрой

Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari ........ 366
**Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich,** kafedra dotsenti

Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari ........ 374
**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich,** DSc.

Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari ........ 382
**Xayriddinov Sh. B.,** mustaqil izlanuvchi

Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari ........ 385
**Xolov Nabijon Qaxramonovich,** PhD.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari ........ 391
**Xusanov Otabek Nishonovich,** PhD, mustaqil izlanuvchi

Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari ........ 396
**Elbusinova Umida Xamidullayevna,** kafedra dotsenti

Особенности методики проведения аудита затрат на производство ........ 401
**Хилола Икрамова Ровшан кизи,** базовый докторант

Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni ........ 407
**Bekdavlat Aliyev**

O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari ........ 412
**O'ktamova Nozima Narzulla qizi,** kafedra dotsenti

Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari ........ 416
**Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich,** mustaqil izlanuvchi

XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik ........ 420
**Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich,** falsafa fanlari doktori (PhD)

Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari ........ 424
**Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna**

Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития ........ 431
**Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна,** аспирант

Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari ........ 440
**Xolmamatov Farhodjon Kubayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari ........ 446
**Bobirjon Aktamov,** mustaqil tadqiqotchi

Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti ........ 454
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** t. f. n., mustaqil tadqiqotchi

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish ........ 459
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# KORXONANING STRATEGIK BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH



**Maxmudov Nosir Maxmudovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish kafedrasi professori



**Elmurodov Faxriddin Farxodovich**
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining Loyiha boshqaruvi magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Maqolada korxonaning strategiyasi, strategik boshqaruvi, strategik rejalashtirish bosqichlarini ishlab chiqish tahlili keltirilgan. Shu bilan birga, strategik boshqaruv (menejment) atamalariga xorij olimlari va internet saytlarida keltirilgan ta’riflar aks ettirilgan. Korxonaning strategik boshqaruvi mazmuni, ya’ni ta’sir etuvchi omillar hamda korxona strategiyasini rejalashtirish bosqichlari jadval orqali ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: strategiya, strategik menejment, strategik boshqaruv, strategik tahlil, strategik rejalashtirish.

Abstract: The article presents an analysis of the development of the enterprise’s strategy, strategic management, and strategic planning stages. At the same time, the definitions of strategic management terms given by foreign scientists and on Internet sites are reflected. The content of the strategic management of the enterprise, i. e. the influencing factors and the stages of planning the enterprise strategy, are shown in the table.

Key words: strategy, strategic management, strategic analysis, strategic planning.

Аннотация: В статье представлен анализ этапов разработки стратегии предприятия, стратегического управления и стратегического планирования. При этом отражены определения терминов стратегического управления (менеджмента), данные зарубежными учеными и на сайтах интернет. Содержание стратегического управления предприятием, т. е. влияющие факторы и этапы планирования стратегии предприятия, представлены в таблице.

Ключевые слова: стратегия, стратегическое управление, стратегический менеджмент, стратегический анализ, стратегическое планирование.

## KIRISH

Yangi O‘zbekiston tadbirkorlari va biznes vakillariga keng imkoniyatlar yaratilib soha yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bu esa o‘z navbatida tadirkorlar hamda biznes vakillarining mas’uliyatini oshirib, tashkilot yoki korxonalarni boshqarishni to‘g‘ri tashkil etish va berilayotgan imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanishni talab etadi Bunday sharoitda korxonalar o‘zining o‘rta va uzoq muddatga belgilangan maqsad va vazifalarini belgilab olish kerak bo‘ladi. Buning uchun strategik tahlil o‘tkazish va korxona rivojlanishini shakllantirish dolzarb

masalaga aylanib boradi. Korxona oʻz faoliyatida maʼlum bir toʻsiqlar va xavf-xatarga duch kelishini oldindan bilishi va shunga nisbatan prinventiv choralar koʻrib borishi kerak boʻladi. Bu ham strategik rejalash va ishlab chiqishni taʼlab etadi. Islohatlar sharoitida korxonaning kelgusi davrdagi faoliyatini belgilashda, rejalashtirishda mavhumlik holati koʻp uchraydi. Bunday mavhumlikni oydinlashtirish maqsadida korxonaning rivojlanishini bir qancha stenariyalik variantlarini belgilash lozim boʻladi (pessimistlik,optimistlik, inersion variantlar). Shu sababli iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida korxonalarda strategik boshqaruv tizimini bozor talablarida moslashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri ekanliga sababli tavsiyalar keltirilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Har qanday mamlakatning ravnaqi, uzoq muddatli yutuqlari ishlab chiqilgan strategiyasiga bogʻliq boʻladi. Shu jumladan korxonalarning ham. Bu borada zamonaviy iqtisodchi ilm-fan nomoyondalari juda koʻp izlanishlar amalyotlar olib borgan. Xorijiy mamlakat olimlari A. Goponenko, Fillip Kotler, R. S. Kaplan, D. P. Norton, Kemplel va boshqalar tomondan boshqaruv toʻgʻrisida koʻplab ilmiy tadqiqotlar kitoblar nashr qilingan. Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi olimlari Vladimir Kvint, B. I. Goncharov, Y. A. Malenkov, I. B. Gurkov va boshqalar tomonidan ham izlanishlar natijasida turli xildagi adabiyotlar, maqolalar chop etilgan. Korxonalarda strategik boshqaruv imkoniyatlarini oshirishning zaruriyati, nazariy va amaliy masalalarini respublikamizdagi bir qator olimlar: Sh. Zaynutdinov, S. Gʻulomov, N. Q. Yoʻldoshev, Gʻ. M. Qosimov va boshqalarning darslik, maqola ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan va alohida toʻxtalib oʻtilgan.

## TATQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda korxona faoliyatidagi barcha holat sabab va oqibatlarni ketmaketlikda oʻrganish tahlil qilish va ularni bir-biri bilan birgalikda oʻrganshda tizimli va kompleks tahlil, sotsiologik kuzatuv, undan tashqari qiyosiy tahlil qilish, tarkibiy yondashuv, ekspremеnt usuli ekonometrik tahlil usullaridan foydalaniladi. Korxona tizimida amalga oshirilayotgan tarkibiy oʻzgarishlar va boshqarish sifatini baholashda boshqaruvning funksional tahlili va ekspert baholash metodlari qoʻllaniladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali amalga oshirilishi uchun boshqarishning, ayniqsa strategik boshqaruvning turli sohalarida ijobiy oʻzgarishlar boʻlishi muhim vazifalardan biri sanaladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi natijasida korxonalarni strategik boshqarishda yangi talablar paydo boʻlmoqda. Oʻzbekiston iqtisodiyotining zamonaviy oʻtish bosqichi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi va turli xil mulkchilik shakllariga oʻtish bilan tavsiflanadi. Bu oʻz navbatida samarali boshqarishning zarurligini taqozo etadi. Samarali boshqarish ishlab chiqariladigan mahsulot raqobatbardoshligini va buning natijasida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxona muhitida tashkilotni maqsad sari yoʻnaltirish, menejerlarning strategik rejalarini va vazifalarini amalga oshirish, tanlangan strategiyani hayotga tatbiq etish kabi faoliyatlarni bajarishga toʻgʻri keladi.

Strategik boshqaruv – bu korxona mavqeyini mustahkamlashga, mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga va muayyan natijalarga erishishga qaratilgan boshqaruv rejasidir. Lekin hozirgi bozor sharoitida koʻpgina korxona va tashkilotlarda, xususan, loyihalar tashkilotlarida hamon boshqaruv tuzilmasida ortiqcha boʻgʻinlar mavjud boʻlib, bular oʻz navbatida yuqorida taʼkidlaganimizdek, strategik boshqaruvda mehnat unumdorligining pasayishiga va pirovard natijada korxonaning yakuniy faoliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Shu sababli bozor iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida korxonalarda strategik boshqaruv tizimini bozor talablariga moslashtirish, yaʼni takomillashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Strategiya korxonaning muvaffaqiyatini taʼminlash uchun rahbariyat foydalanadigan tadbir-choralar majmuasidan iborat. Rahbariyat korxona biznesini qanday boshqarishni bilish uchun hamda koʻp omilli muhitda muqobil yoʻnalishlardan birini toʻgʻri tanlash uchun strategiyani yaratadilar. Rahbariyat foydalanishga qaror qilgan strategiya mavjud biznes yoʻnalishlaridan biri va biznesni yuritishni muayyan usuli tanlanganligini koʻrsatadi.

Korxona moliyaviy va strategik maqsadlarni alohida belgilashi lozim. Moliyaviy maqsadlarning mavjud emasligi, moliyaviy resurslarni yuqori tavakkalchilik bilan sarflanishiga sabab boʻladi. Natijada korxonaning oʻsishi va raqobatbardoshligi pasayadi.

Korxona strategik maqsadlari shuning uchun muhimki, ular korxona raqobat mavqeyini mustahkamlaydi va biznesning rivojlanish yoʻnalishini koʻrsatadi.

Strategiya – bu faoliyat turlarining maʼlum dastasini nazarda tutuvchi noyob va qulay mavqeni yaratishdir. Strategik mavqeni egallashning mazmuni raqobatchilardan ustun boʻlgan faoliyat turlari dastasini yaratishdan iborat.

"Strategiyalar korxonaning kuchli taraflarini samarali sarmoyalashi, va shu bilan uning zaif tomonlaridan chetlab o'tishi, ijobiy tashqi sharoitlardan ustun taraflarini tanlab olish va tashqi xavflardan holi bo'lmog'i zarur"[1].

Strategiya – tashkilotning tashkiliy vazifa va maqsadlariga erishishda foydalaniladigan tashkiliy xatti-harakatlar va boshqaruvga yondashuvlari tarzidir. Biznes sohasini belgilash, maqsadni belgilash, qisqa va uzoq muddatli vazifalarni (dasturlarni) aniqlash, maqsadga erishish strategiyasini belgilab olish strategik rejani tashkil qiladi.

Garvard biznes-maktabi professori Chandler ta'rifiga ko'ra, strategiya – tashkilotning vazifalari va asosiy uzoq muddatli maqsadlarini bajarish uchun zarur bo'lgan resurs (moddiy ne'mat)larni joylashtirish va harakat yo'nalishini belgilab olishdir[2]. To'g'risini aytganda, "strategiya" terminining Chandler tomonidan tushuntirilishi boshqa ta'riflarga nisbatan oddiyroq va tushunarliroqdir. E'tibor qilgan bo'lsangiz. Chandler ta'rifida strategiyaning uch elementi to'g'risida so'z boradi. Asosiy uzoq muddatli maqsadlarni aniqlash ketma-ket bajarilishi kutilayotgan strategik maqsadlarni belgilab olishdir.

Strategiyani yaratish asosiy boshqaruv muammosini ko'taradi ya'ni, korxonaning hozirgi va kelajak imkoniyatlarini hisobga olib, kerakli natijalarga qanday erishish mumkinligini ko'rsatadi. Strategiya umumiy tarzda firmaning mavqeyini mustahkamlash, iste'molchilarning talablarini qondirish va qo'yilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan boshqarish rejasi sanaladi. Aniq strategiyani tanlash rivojlanishning mumkin bo'lgan turli yo'llari va usullari ichidan eng maqbulini tanlab olish demakdir.

Korxonani boshqarish rejasi o'z ichiga quyidagi asosiy funksiya va bo'linmalarni oladi: ta'minot, ishlab chiqarish, moliya, marketing, xodimlar, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar. Strategiyani tanlash bu biznes yechimlari va raqobatga bardoshlilik harakatlarini yagona tizimga bog'lashni anglatadi.

Strategiyani ishlab chiqish menejerlarning asosiy funksiyalaridan biridir. Ba'zi menejerlar kuchli strategiya ishlab chiqadilar, biroq uni hayotga tatbiq eta olmaydilar. Boshqa menejerlar o'rtacha strategiya ishlab chiqadilar va uni mohirona amalga oshiradilar. Strategiya qanchalik yaxshi o'ylangan va mohirona amalga oshirilgan bo'lsa, kompaniyaning mavqeyi shunchalik kuchayadi. Boshqarish yaxshi tashkil etilgan korxonalar ham kutilmagan noxush vaziyatlarga duch keladi. Pirovard natijada yaxshi strategiya bozorda kuchli mavqeni egallash, kutilmagan holatlar, kuchli raqobat va ichki muammolarga qaramay, muvaffaqiyatli ishlashga zamin yaratadi.

Strategik boshqaruv jarayonida korxona va tashkilotda faoliyat olib borayotgan menejerning vazifasi quyidagilarni aniqlashdan iborat bo'ladi:

- Biz qayerdamiz?
- Qayoqqa ketyapmiz?
- Faoliyatimizning maqsadi nimadan iborat?
- Maqsadga erishish yo'llari qanaqa?
- Optimal yo'lni tanlash mezonlari nimalardan iborat?
- Pirovard natija qanday bo'lishi kerak?

Bu savollariga javob topish kelgusi boshqaruv sikllarida foydalanish, maqsad va natijalarni aniqlash uchun o'ta muhim.

Strategik menejment kompaniyaning uzoq muddatli maqsadlar va faoliyatiga taalluqli. Aytish mumkinki, strategiyani (harakatlar tarzini) va uning aniq vositalarini ifodalash boshqaruv negizini tashkil qiladi va kompaniyada menejmentni yaxshi yo'lga qo'yilganligini ko'rsatuvchi eng to'g'ri belgi bo'lib xizmat qiladi.

Strategik menejmentning mazmuni quyidagilardan iborat:

- korxona biznesining yo'nalish va asosiy maqsadlyarini belgilab olish;
- korxonaning tashqi muhitini tahlil qilish;
- undagi ichki vaziyatni tahlil qilish;
- korxona yoki xo'jalikning o'rta bo'g'inlarida strategiyani tanlash va ishlab chiqish;
- diversiyalangan korxona portfelini tahlil qilish;
- uning tashkiliy tuzilmasini loyihalash;
- integratsiya darajasini va boshqaruv tizimini tanlash;
- "strategiya – tuzilma – nazorat" majmuasini boshqarish,
- korxona faoliyatining ba'zi sohalardagi siyosati va uning fe'l-atvor me'yorlarini belgilash;
- korxona strategiya va natijalarining teskari aloqasini ta'minlash; – strategiya tuzilma va boshqaruvni takomillashtirish.

Bularning barchasi 1-chizmada keltirilgan.

1 Fred R. David. Strategic Management: A Competitive Advantage Approach, Concepts & Cases. Pearson. USA. 2014. – 16 p.
2 Kattakishiyev V., Mamayusupov I. Strategik menejment fanidan praktikum. – T., "Fan va texnologiya", 2008. – 130-b.




1-chizma: Strategik boshqaruvning mazmuni[3]

Strategik menejment korxonaning uzoq muddatli maqsadlar va faoliyatiga taalluqli. Aytish mumkinki, strategiyani (harakatlar tarzini) va uning aniq vositalarini ifodalash boshqaruv negizini tashkil qilish va kompaniyada menejmentni yaxshi yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rsatuvchi eng to‘g‘ri belgi bo‘lib xizmat qiladi.

Strategik boshqarish tizimi bir qarashda murakkab jarayon bo‘lb, u korxona va tashkilot rahbaridan, menejerlardan kuchli mahorat hamda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Rahbarlar korxona va tashkilotning kelajagini ko‘ra olishi va unga mos strategiyani ishlab chiqishlari lozim bo‘ladi. Bu juda murakkab va mas’uliyatli tizim hisoblanadi. Bunda ularga yuqori pog‘ona menejerlari, ya’ni top menejerlarning yordami kerak bo‘ladi. Top menejerlar kuchli analitik hamda rejalashtiruvchi mutaxassislar hisoblanadi.

Strategik menejmentning beshta vazifasi mavjud. Korxona strategiyasini yaratish o‘zaro bog‘liq 5 ta qismdan iborat:

1) tijorat faoliyatining turini aniqlash va korxona rivojlanishining yo‘nalishini belgilash, ya’ni maqsadni aniqlab o‘zoq muddatli istiqbolni belgilash;
2) umumiy maqsadlarni ishning aniq yo‘nalishlariga aylantirish;
3) ko‘zlangan ko‘rsatkichlarga erishish uchun tanlangan rejani mohirona amalga oshirish;
4) tanlangan strategiyani samarali ijro etish;
5) bajarilgan ishni baholash, bozordagi vaziyatni tahlil qilish, faoliyatning uzoq muddatli asosiy yo‘nalishlariga, maqsadlarga, strategiyaga yoki uni amalga oshirish usullariga tuzatishlar, yangi g‘oyalar kiritish.

Korxona strategiyasining asosiy masalasi quyidagicha: “Korxonamizni biz qanday tasavvur qilamiz, nima qilmoqchimiz va nimaga erishmoqchimiz?”, “Biz kimmiz, nima qilyapmiz va qayoqqa ketyapmiz?” degan savolning javobi korxonaning yo‘nalishini belgilab, kuchli o‘ziga xoslikni ishlab chiqish imkonini beradi. Korxona nima qilayotgani va nima qilmoqchi ekanligi kompaniyaning missiyasini anglatadi. Menejer o‘z korxonasining bozordagi o‘rnini qanday tasavvur qilishi esa korxonaning strategik ko‘rishini shakllantiradi.

Demak, strategik boshqaruvni tashkilotning asosi sifatida inson potensialiga suyanuvchi, ishlab chiqarish faoliyatini iste’molchilar talablariga yo‘naltiruvchi, tashkilotda egiluvchan boshqaruv va o‘z vaqtida o‘zgarishlarni amalga oshiruvchi boshqaruv sifatida aniqlash mumkin. Strategik boshqaruv murakkablashib borayotgan raqobat kurashida muvaffaqiyatga erishishning eng muhim omili bo‘lishiga qaramay tashkilot harakatlarida strategiyaning yo‘qligini kuzatish mumkin. Strategik boshqaruvning yo‘qligi quyidagi ikki shaklda namoyon bo‘ldi. Birinchidan, tashkilotlar o‘z faoliyatini atrof muhit umuman o‘zgarmaydi yoki unda katta o‘zgarishlar bo‘lmaydi degan taxmindan kelib chiqqan holda rejalashtiradilar. Nostrategik boshqaruvda ham hozirda, ham kelajakda aniq harakatlar rejasi tuziladi. Nimaki va qachon qilishni o‘z ichiga olgan uzoq muddatli rejalarni tuzish va dastlabki davrda kelgusi yillar uchun yechim izlash, “ko‘p uzoq yillarga” sotib olish – bularning barchasi nostrategik boshqaruvning belgilaridir. Uzoq muddatli istiqbolni qo‘rish-boshqaruvning juda muhim tarkibiy kismidir.

3 Гапоненко А. Стратегическое управление: учеб. Для студентов вузов, обучающихся по специальности “Менеджмент орг.” – М.: “Омега – Л ”, 2010. – 464 стр.

Strategik boshqaruv holatida tashkilot atrof muhit va tashkilot hayotining sharoitlari o‘zgarishidan kelib chiqqan holda kelajakda ko‘zda tutish maqsadlarga erishish uchun har bir hozirgi lahzada u aynan hozirgi paytda nima strategik boshqaruvda kelajakdan turib hozirgi paytga nazar tashlanadi. Tashkilotga ma’lum kelajakni ta’minlovchi hozirgi davrdagi tashkilot harakatlari aniqlanadi va amalga oshiriladi. Bunda strategik boshqaruv uchun shu narsa ham xarakterliki, nafaqat kelajakda korxonaning ko‘zda tutilgan holati qayd qilinadi, balki shu ham strategik boshqaruvning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi, ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishish imkoniyatini beruvchi atrofdagi o‘zgarishlarga aks ta’sir ko‘rsatish qobiliyati ishlab chiqiladi. Ikkinchidan, nostrategik boshqaruvda harakat dasturini ishlab chiqish tashkilotning ichki imkoniyatlari va resurslari tahlilidan boshlanadi. Bunday yondashuvda tashkilot faqat qanday miqdorda mahsulot ishlab chiqarish va bunda qancha harakat qilishnigina aniqlashi mumkin. Ishlab chiqarish hajmi va xarajatlar miqdori firma tomonidan yaratilgan javob bera olmaydi, qanday miqdorda va narxda mahsulot sotib olinishini bozor aniqlaydi.

Yuqorida aytganimizdek, strategik rejalashtirish korxona boshqaruvi uchun asosni yaratadi, butun korxonani birlashtiradi hamda uning barcha darajalarini qamrab oladi. Strategik rejalashtirish faqat rahbariyatning vazifasi emas, unga korxonaning barcha darajalaridagi xodimlar jalb etilishi kerak. Strategik rejalashtirishning asosiy tushunchalari korxona missiyasi (kompaniya vazifasining ta’rifi), qadriyatlari, asosiy kompetensiyalari (kompaniya nimani yaxshiroq uddalaydi), kelajak tasavvuri (kompaniyaning bir-ikki yil uchun kelajakdagi obrazi), strategik muammolar (maqsadlarga erishishga to‘sqinlik qiladigan tizimli muammolar), strategik muammolarni yengishga qaratilgan maqsadlar vazifalar va ularga erishish yo‘llarini o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda turli mulkchilik shaklidagi, turli soha va tarmoqlarga taalluqli 483.6 mingdan ortiq korxona mavjud bo‘lib, ulardan 417.2 mingtasi kichik biznes subyektlari hisoblanadi[4]. Ularning ishlab chiqarish faoliyati, shubhasizki, rejalashtirish va boshqarish obyekti bo‘lib, bozorga va iste’molchilar talabini qondirishga yo‘naltirilgandir. Amaliyotning ko‘rsatishicha, ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirishda har bir korxona o‘zining bugungi kundagi va kelajak uchun strategiyasini belgilab oladi. Shu sababli rejalashtirish korxonani rivojlantirish strategiyasidan ajralmas bo‘lib, buni quyidagi sxema yordamida aks ettirish mumkin (2-chizma).




2-chizma: Strategik rejalashtirish jarayoni[5]

Mazkur holatda strategiya kelajak uchun umumiy g‘oyani shakllantirishga imkon beradi. Rejalashtirish jarayonining o‘zi va bevosita strategik reja esa korxonaga aniqlik, individuallik hadya etib, bu unga ma’lum turdagi xodimlarni jalb qilish va boshqa turdagi xodimlarni jalb qilmaslikka imkon beradi. Bu reja korxona uchun istiqbollar ochib berib, yangi xodimlarni jalb qiladi, mahsulot ishlab chiqarishdan tashqari uni sotishga ko‘maklashadi.

Rejalar shunday tuzilishi kerakki, ular uzoq vaqt davomida buzilmasligi, shu bilan bir paytda zarur hollarda yo‘nalishni o‘zgartirishga moslashgan bo‘lishi lozim. Amalda rejalashtirish jarayonida ikkita muhim savolga javob topish zarur:

1) korxona uchun bozordagi vaziyat bilan bog‘liq joriy vazifalarni bajarishda to‘siqlar yaratmaydigan strategik maqsadni qanday tanlash;
2) strategik maqsadlarga tayangan holda eng murakkab va kutilmagan hodisa va tashqi tendensiyalarga munosib va samarali javob qaytarishi uchun moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini qanday shakllantirish lozim.

O‘zgarishlarni kutish yoki “strategik rejalashtirish” asosida boshqarish kelajakdagi tendensiyalarni o‘z vaqtida taxmin qilish va ularga tegishli strategiyani ishlab chiqish orqali ularga bo‘lgan munosabatni aniqlashga imkon beradi. Ushbu yondashuv nafaqat korporatsiyalarning iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini, balki tashqi

4 Stat. uz sayti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi 2023-yil 17-iyuldagi hisoboti.
5 Yo‘ldoshev N. Q., Xodjamuratova G. Y. Strategik menejment–2. O‘quv-uslubiy majmua. – T.: TDIU, 2012. – 328 b.; Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Y. Menejment. – Toshkent, 2001. – 68-b.

muhitni aniqlashga asoslangan. Strategik rejalashtirish tashkilotning aniqlangan kuchli va kuchsiz tomonlariga, shuningdek, ularning o‘zgarishi tendensiyalarini hisobga olgan holda tashqi muhitdagi imkoniyat va tahdidlarga asoslanadi.

Strategik rejalashtirishda, uzoq muddatli faoliyat bilan taqqoslaganda, kompaniya faoliyati maydoni yanada kengroq bo‘ladi, bu ichki muhitning ikkala asosiy elementlarini ham o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy tashkilot va tashqi jihatlar: ijtimoiy va siyosiy omillar, xaridorlarning didi va ehtiyojlari, raqobatchilarning harakatlari va boshqalar. Bundan tashqari, strategik rejalashtirishda firmaning uzoq muddatli maqsadlari hozirgi faoliyat shartlarining oddiy aksi bo‘lib qolishni to‘xtatadi, ammo firmaning tashqi va ichki muhitidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish natijasi bo‘lib chiqadi. Strategik rejalashtirishdan uzoq muddatli rejalashtirishdan asosiy farq uning o‘zgaruvchanligi, kompaniyaning kelajakdagi rivojlanishining muqobil variantlarini ishlab chiqishdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Strategiya ustuvorliklarni hisobga olib, korxona xarakteristikasini hamda mahsulot raqobatbardoshligini integratsiyalovchi yig‘ma ko‘rsatkichni aniqlashga asoslanadigan korxonaning raqobatbardoshligini baholash uslubidan keng foydalanish zarur. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash – ishlab chiqarilayotgan tovarlar, amalga oshirilayotgan ishlar, ko‘rsatilayotgan xizmatlar bozorida klaster ishtirokchilarining barqarorligini oshirish uchun, ilg‘or texnologiyalarni joriy etishning innovatsion dasturi bilan birlashgan korxona va subyektlarning barqaror hudud-tarmoq sherikchiligi asosida klaster yondashuvdan samarali foydalanish imkonini beradi.

Korxonalarning faoliyat ko‘rsatish tendensiyalari va qonuniyatlarini tahlil qilish hamda strategik boshqaruv tamoyillari asosida uning raqobatbardoshligini oshirish zarurligi baholanadi. Barqarorlik – korxona faoliyatining natijadorligidan, raqobatbardosh salohiyatini amalga oshirishdan, raqobatbardoshlik esa – korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish hamda raqobatbardosh mahsulotni sotishdagi imkoniyatini belgilashdan iborat bo‘lganligi uchun, bu tushunchalarning birga qo‘shilishini hisobga olish, korxonaga o‘z raqobatbardoshligini oshirishning optimal strategiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Korxonalarning faoliyat ko‘rsatish tendensiyalari va qonuniyatlarini tahlil qilish hamda strategik boshqaruv tamoyillari asosida uning raqobatbardoshligini oshirish zarurligi baholanadi. Barqarorlik – korxona faoliyatining natijadorligidan, raqobatbardosh salohiyatini amalga oshirishdan, raqobatbardoshlik esa – korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish hamda raqobatbardosh mahsulotni sotishdagi imkoniyatini belgilashdan iborat bo‘lganligi uchun, bu tushunchalarning birga qo‘shilishini hisobga olish, korxonaga o‘z raqobatbardoshligini oshirishning optimal strategiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Korxonalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hozirgi kunda iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Aholining mahsulotlarga bo‘lgan talabi yildan yilga oshib bormoqda. Bu talabni qondirish korxonalar ishlab chiqarishiga innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, yetarli hajmda investitsiyalar kiritish va yangi usullardan foydalanish hamda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Fred R. David. Strategic Management: A Competitive Advantage Approach, Concepts & Cases. Pearson. USA. 2014.
2. Каттакишиев В., Мамаюсупов И. Стратегик менежмент фанидан практикум. – Т., “Фан ва технология”, 2008.
3. Гапоненко А. Стратегическое управление: учеб. Для студентов вузов, обучающихся по специальности “Менеджмент орг.” – М.: “Омега–Л ”, 2010.
4. Yo‘ldoshev N. Q., Xodjamuratova G. Y. Strategik menejment–2. O‘quv-uslubiy majmua. T.: TDIU. 2012. – 328-b.; Sharifxo‘jayev M., Abdullayev Y. Menejment. – Toshkent, 2001.
5. Qosimov G‘., M. Menejment. Darslik qo‘llanma. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2002.
6. Ансофф И., Стратегическое управление. – М.: Экономика, 1989.

**Internet saytlari:**

7. https://stat.uz
8. https://www.pmi.org
9. https://www.investopedia.com
10. https://en.wikipedia.org.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.